


127. Unumdorlikka doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
atrof-muhitga g'amxo'rlik.

Formula, unumdorlik,
miqdor, ish hajmi.



1. Zanjir bo'ylab yeching.



2. Ish hajmini hisoblash formulasidan foydalaniib, noma'lum kattaliklarni toping.

w	t	A
5l/h	12h	?
?	50 min	400 cm ²
20 dona/h	?	6 000 dona

Unumdorlikka doir masalalarda shartni jadval yordamida yozish qulay. Bu, ayniqsa, masala ikki obyektning ishini yoki ishning ikki bosqichini tavsiflagan hollarda qulaydir.



w	t	A

127. Unumdoorlikka doir masalalar yechish



3. Madina kompyuterda 30 sahifali referatni terishi kerak. U 1 soatda 6 sahifa teradi. Madina 18:00 dan 22:00 gacha butun referatni terib tugaishga ulguradimi?

w	t	A
6 sahifa/h	?, 18:00 dan 22:00 gacha terib ulguradimi – ?	30 sahifa



4. Volontyorlar 20 soat ichida 2400 m^2 maydonni axlatdan tozalashdi: ular shisha, qog'oz parchalari va polietilen xaltachalarni yig'ishdi. Agar volontyorlar shunday unumdoorlik bilan ishlab, yana 840 m^2 maydonni tozalashsa, bunga qancha vaqt kerak bo'ladi?

	w	t	A
I bosqich	bir xil	20 soat	2400 m^2
II bosqich	bir xil	?	840 m^2




5. Suv quvuri shikastlanib, ikki joyidan teshildi. Quvurdan birinchi teshik orqali soatiga 7 litr, ikkinchi teshik orqali esa 12 litr suv oqmoqda. Bir sutkada necha litr suv isrof bo'ladi?

	w	t	A
I teshik	7l/h	1d = 24 h	
II teshik	12l/h	1d = 24 h	?




6. Teskari amallarni tanlang va noma'lum qiymatlarni toping.

3 marta
orttiring



36 sonini
qo'shing



Teskari
tartibda yozing



127. Unumdorlikka doir masalalar yechish



7. Juft komponentli tenglamani tanlang va uni yeching.

$$250 : m + 12 = 37$$

$$930 + y \cdot 7 = 1490$$

$$(720 - t) \cdot 6 = 1020$$



8. Ko‘lga to‘xtovsiz o‘sadigan nilufar guli ekildi.

Bir haftada nilufar guli bilan qoplangan maydon yuzi ikki marta ortadi. 8 haftada ko‘l butunlay nilufar guli bilan qoplanadi. Ko‘Ining yarmi nilufar guli bilan qoplanishi uchun necha hafta kerak bo‘ladi?



9. Misollarni yeching. Bu yerda qanday chaqiriq yashiringan? Unga amal qila olasizmi?

S $6246 + 5198$

A $2499 + 2577$

G $34\,000 - 21\,729$

N $6200 - 3112$

I $100\,404 : 18$

V $4860 : 9$

! $21 \cdot 47$

R $700 \cdot 17$

U $50\,000 + 600 + 3$

K $40\,000 + 10 + 6$

11 444	50 603	540	3 088	5578
--------	--------	-----	-------	------

5 076	11 444	11 900	5 076	3 088	12 271	987
-------	--------	--------	-------	-------	--------	-----



10. O‘g‘il bolalar va qizlar mifik ishlariga yordam berishmoqda.

O‘g‘il bolalar soatiga 11 ta daraxt ekishdi. Qizlar soatiga 4 ta deraza oynasini yuvishdi. 3 soatda nechta daraxt ekiladi?

Shu vaqt ichida nechta deraza oynasi yuviladi?


	w	t	A
O‘g‘il bolalar	11 daraxt/h	3 h	?
Qizlar	4 oyna/h	3 h	?

Biz nimalarни bilib oldik? Nimalarни о'ргандик?

Biz formula tushunchasi bilan tanishdik.



- Berilgan kattaliklar uchun harfiy belgilarni toping. Ular qanday formulalarda ishtirok etishini eslang.



Miqdor	Unumдорлик
Uzunlik	Maydon
Tezlik	Narx
Hajm	Vaqt
Masofa	Kenglik



Qiymat



Yo'l



Yuz



Ish hajmi

Biz harakatga doir masalalarni yechishni о'ргандик.



- Geologlar tog'dagi geologik stansiya tomon yo'lga chiqishdi. Dastlab ular mashinada 75 km/h tezlikda 4 soat yurishdi, keyin otlarga minib, 7 km/h tezlikda 2 soat tog'ga ko'tarilishdi, yo'lning qolgan qismini esa 3 km/h tezlikda 4 soat piyoda bosib o'tishdi. Geologlar stansiyaga qancha vaqtda yetib kelishgan? Ular qanday masofani bosib o'tishgan?

Jadvalni to'ldiring. Masalani bosqichlar bo'yicha yeching.


	v	t	s
Mashinada			
Otlarda			
Piyoda			

Biz qiymatni topishga doir masalalarni yechishni o'rgandik.



3. Masalaga doir tenglama yozing. Uni tekshirish bilan yeching.

Bloknot va to'rtta ruchka uchun 27 000 so'm to'landi. Bloknotning narxi 15 000 so'm. Bitta ruchka qancha turadi?



Biz ish hajmini topishga doir masalalarni yechishni o'rgandik.



4. O'qituvchi bir soatda matematikaga doir 15 ta ishni tekshirishi mumkin. U 2 soatda nechta ishni tekshira oladi? 3 soatda-chi? 4 soatda-chi?



Biz to'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi va perimetri formulalari bilan tanishdik.



5. Ushbu shaklning yuzi va perimetrini toping.

